

INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI TAHLILI

Xolmirzayeva Zuxra Jamshidovna

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya talabas

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning tilda tutgan o'rni va tarjima qilish jarayonidagi ekvivalentlik masalalari ko'rib chiqiladi. Ikki xil madaniyatga mansub tillardagi iboralarning o'xshash va farqli jihatlari misollar orqali tahlil qilina*

Kalit so'zlar: *Frazeologiya, ekvivalentlik, ideoma, tarjima, chet el, ibora, o'xshashlik, farqlilik*

Frazeologik birlik — bu ma'nosi tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqmaydigan, nutqqa tayyor holda olib kiriladigan turg'un birikmadir. Ular iboralar yoki ideomalar deb ham yuritiladi.

Frazeologizmlar nutqimizning "ziravori" bo'lib, u fikrni obrazli va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillari bir-biridan uzoq oilalarga mansub bo'lsa-da, ularning iboralarida hayratlanarli o'xshashliklar va qiziqarli farqlar mavjud.

Dastavval, o'zbek tilidagi ba'zi bir bor iboralarga nazar tashlasak:

Qovun tushirmoq - Kutilmaganda noo'rin ish qilib, sharmanda bo'lish.

Yulduzi issiq - Ko'rinishi yoqimli, kishini o'ziga tortadigan.

Og'zi bo'sh -Sir saqlay olmaydigan, valdiragan.

Burni ko'tarilgan - Kibrli, manman.

Xamiridan patir qilmoq - Imkoniyatdan unumli foydalanib qolish.

Tepsa tebranmas -Juda sust, imillagan yoki beparvo.

Ilonning yog'ini yalagan - O'ta ayyor, ustomon.

Qulog'iga tanob tortmoq - Adabini berib qo'ymoq, jazolamoq.

Dumini tugib qochmoq - Mag'lub bo'lib, sharmandalarcha ketmoq.

Yuragi yo'q -Qo'rqq, jur'atsiz.

Taka bo'lsin, sut bersin - Qanday bo'lsa ham foyda keltirsa bo'ldi.

Boshiga ko'tarmoq -Haddan tashqari hurmat qilmoq yoki erkalatmoq.

Et bilan tirnoqdek -Ajralmas, juda yaqin

Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan- Umidi uzilgan, qattiq tushkunlikka tushgan. Bu kabi iboralarni nafaqat badiiy adabiyotda ishlatsak balki og'zaki nutqda ishlatsak ham gapning, nutqning bezagi bo'lib xizmat qiladi.

Endi ingliz ideomalariga nazar tashlasak:

Piece of cake - Juda oson ish (Xamirdan qil sug'urgandek).

Under the weather - O'zini yomon his qilish, betobroq bo'lish.

Break a leg - Omad tilash (Odatda san'atkorlarga sahnaga chiqishdan oldin aytiladi).

Once in a blue moon - Juda kamdan-kam hollarda (Sakkiz yilda bir).

Spill the beans - Sirni ochib qo'ymoq.

When pigs fly -Hech qachon amalga oshmaydigan ish (Tuya dumi yerga tekkanda).

Break the ice -Oradagi sovuqchilikni yoki noqulaylikni yo'qotib, suhbatni boshlash.

Beat around the bush - Asosiy gapni aytmasdan, mavzuni aylantirib chalg'itish.

A hot potato - Hamma bahslashayotgan, qiyin va nozik masala.

Cost an arm and a leg -Juda qimmat (Otning kallasidek).

Let the cat out of the bag - Bilmasdan sirni fosh qilib qo'yish.

Barking up the wrong tree - Noto'g'ri odamdan ayb qidirish yoki noto'g'ri yo'ldan ketish.

Cry over spilt milk - Bo'lar ish bo'ldi, endi afsuslanishdan foyda yo'q.

Cut to the chase - To'g'ridan-to'g'ri maqsadga o'tish (Lofni qo'yib, asosiy gapga o'tish).

Hit the nail on the head - To'ppa-to'g'ri topish yoki gapning adog'ini aytish.

Better late than never - Hechdan ko'ra kech yaxshi. Bu kabi iboralar ingliz tili olamida eng ko'p ishlatiladigan iboralar hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tilidagi iboralarni taqqoslab ularni uch guruhga bo'lishimiz mumkin. Bular:

1. Ekvivalentli frazeologizmlar
2. Qisman ekvivalentli frazeologizmlar
3. Ekvivalentsiz frazeologizmlar.

1. Ekvivalentli frazeologizmlar (bir xil tarkib, bir xil ma'no).

Ba'zi iboralar borki, ular har ikki tilda ham bir xil mantiqiy asosga ega. Biroq ularning soni unchalik ko'p emas. Masalan

Money doesn't grow on trees- Pul daraxtda o'smaydi. (Pul osonlikcha topilmasligini uqtirish)

Walls have ears -Devorning ham qulog'i bor. (Gap tarqalib ketishi mumkinligidan ogohlantirish).

Bu kabi tarkibi va ma'nosi bir xil bo'lgan ideomalar "to'liq ekvivalentli" bo'lib, ular ozchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari, frazeologiyada "qisman ekvivalentlar" yoki boshqacha nomi "funktional o'xshashlar" ham mavjud. Masalan:

As hungry as a wolf (Bo'ridek och) Itday och Juda qattiq ochqaganlik

When pigs fly (Cho'chqalar uchganda) Tuya dumi yerga *Like two peas in a pod* (Bir po'choqdagi ikki no'xatdek) Dumi tekkanda hech qachon sodir bo'lmaydigan ish

As quiet as a mouse (Sichqondek jim) Baliqdek

Inglizlarda: "Bir tosh bilan ikki qushni o'ldirish" (two birds, one stone).

O'zbeklarda: "Bir o'q bilan ikki quyonni urish" (ikki quyon, bir o'q).

Bu frazeologizmlar ma'nosi bir xil bo'lsa-da, ularning obrazi (qo'llanilgan predmetlari) turlicha chunki bu holat xalqlarning yashash tarzi va geografiyasi bilan bog'liq. Inglizlar orolda yashagani uchun ularda qush ovlash yoki dengiz bilan bog'liq obrazlar ko'p. O'zbeklarda esa quruqlikdagi hayvonlar (quyon, tuya, ot) va dehqonchilik bilan bog'liq obrazlar ustunlik qiladi.

Keyingi tur bu ekvivalentsiz frazeologizmlar.

Bu eng keng tarqalgan ideoma turi bo'lib, bir tildagi iboraning ma'nosi, obrazi va emotsional bo'yog'i ikkinchi tilda aynan mos kelmaydigan holatlarni anglatadi. Ularni

tarjima qilishda bitta muqobil topib bo'lmaydi. Ingliz tilidagi ko'plab idiomalar dengizchilik va sport (ayniqsa, kriket yoki beysbol) bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilidagi iboralar mehmondo'stlik, qarindoshlik va sharqona odob-axloq ustiga qurilgan. Masalan, inglizcha *"The ball is in your court"* (To'p sening maydoningda) iborasini o'zbek tiliga o'g'irganda, sport obrazini saqlab qolish qiyin, bizda bu vaziyatda ko'proq *"Navbat senga keldi"* yoki *"Ixtiyor senda"* kabi oddiy iboralar ishlatiladi.

Masalan: *"left no stone unturned"* ideomasi kelib chiqishi bunday bo'lgan. Chet elliklar uy kalitlarini odatda uy eshiga atrofidagi toshlar tagiga qo'yib ketishadi. Bir inson eshik kalitini topolmay atrofda turgan barcha toshlarini o'girib, tekshirib chiqadi. Ya'ni kalit bo'lishi ehtimoli bir barcha toshlarini sinab chiqadi. Aynan shu holat *"leave stone unturned"* ya'ni biror bir toshni to'ntarmay qo'ymaslik tarjimasida keladi. O'zbek tilida bu frazeologizmning muqobil variantni yo'qligi tufayli 'barcha chorani, variantni sinab, tekshirib ko'rish' sifatida ma'no anglatib ketadi. Bundan tashqari:

The elephant in the room- Hamma ko'rib, bilib turgan, lekin muhokama qilishdan qochayotgan juda katta va jiddiy muammo.

To jump on the bandwagon- Biror narsa ommalashganda (trendga chiqqanda), shunchaki ko'pchilikka ergashish uchun o'sha ishga qo'shilish.

Skeleton in the closet - Oilaning yoki biror kishining hammadan yashiradigan, oshkor bo'lsa sharmanda qiladigan siri.

A blessing in disguise - Avvaliga yomon bo'lib tuyulgan, lekin yakunda kutilmagan yaxshilikka sabab bo'lgan voqea. Shu kabi iboralar va boshqalar ekvivalentsiz frazeologizmlarga yaqqol misol bo'la oladi. Aksincha o'zbekcha, tarjima ingliz tilida muqobil bo'lmagan frazeologizmlarni oladigan bo'lsak:

Salla desa, kalla keltirmoq - Buyurilgan ishni bajarishda haddan oshib ketib, foyda o'rniga zarar yetkazish.

Kapingni yeb qolma - Qattiq pushaymon bo'lib qolishdan ogohlantirish.

Yulduzi issiq - Ko'rinishidan yoqimli, kishini o'ziga tez jalb qiladigan inson.

Enasini ko'rsatmoq - Qattiq jazolash, adabini berish yoki qiynash.

Dasturxon qilmadi - Biror sirni yoki gapni hammaga yoymadi, yashirdi.

Og'zi qulog'ida - Juda ham xursand, baxtiyor holatda bo'lish.

Burni ko'tarilgan - Kibrli, manman bo'lib ketgan odamga nisbatan.

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich - Qilayotgan ishing to'g'ri bo'lsa, hech kimdan yashiradigan yoki qo'rqadigan joying yo'q.

Qulog'iga tanob tortmoq - Tartibga chaqirish uchun jazolash yoki qattiq tanbeh berish.

Xamiridan patir qilmoq - Vaziyatdan ustalik bilan foydalanib, o'ziga foyda chiqarib olish kabi frazalar ekvivalentsiz frazeologizmlarning yaqqol na'munasidir.

Xullas, biz turli tillar frazeologizmlarini taqqoslar ekanmiz ularni uch turga ajratamiz.

1.Ekvivalentli frazeologizmlar -Har ikki tilda bir xil so'z va ma'no (Walls have ears- Devorning ham qulog'i bor)

2.Qisman ekvivalent-ma'no bir xil, obraz esa turlicha (When pigs fly -Tuya dumi yerga tekkanda)

3.Ekvivalentsiz (Lakuna) Faqat bir tilga xos milliy tushuncha. Qolgan tillarda esa muqobilini topib bo'lmaydigan.

Frazeologiya- bu cheksiz dunyo. Uni o'rganish orqali biz nafaqat tilni, balki o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning dunyoqarashini ham o'zlashtiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirzakarimova Z.D., Abduxoshimov J. Frazeologizmlar nutqiy ta'sirchan-yaratuvchi vosita // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2024. – B. 96-97.

2. Komilova U.K., Qosimova M.B. Frazeologizmlardan uslubiy maqsadda foydalanish usullari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2. – Issue 12. – B. 893.

3. Nuriddinova M.Sh. Frazeologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi // Pedagogical international research journal. – 2022. – B. 108-116.

4. Quraboyev A.Y. Ingliz tilidagi idioma (frazelogizm)larning tahlili. O'zbek va ingliz tillaridagi o'xshash idiomalar // IFT-2024: "Ilm-fan taraqqiyoti: muammo, yechim va istiqbollar" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 2024. – B. 205.

5. Komilova, U. K., & Qosimova, M. B. (2022). Frazelogizmlardan uslubiy maqsadda foydalanish usullari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 893.